

Digital Leadership Forumi doirasidagi GovTech Sammiti

PRESS-RELIZI

2023-yil 7-iyul kuni Toshkent shahrida Digital Leadership Forumi doirasida GovTech Sammiti bo‘lib o‘tadi.

Mazkur Sammit O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tashkil etilmoqda.

Sammitda dunyoning o‘ndan ortiq mamlakatidan (AQSH, Avstraliya, Serbiya, Italiya, Ispaniya, Koreya, Xitoy, Tailand, Mali, Livan va boshqalar) axborot texnologiyalari sohasida yetakchi xalqaro ekspertlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va yirik xorijiy kompaniyalardan tajribali spikerlar ishtirok etadilar.

Sammit kun tartibida raqamli hukumatni rivojlantirishning zamonaviy strategiya va tendensiyalari, davlat xizmatlarini raqamli transformatsiya qilish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish borasida ilg‘or xorijiy tajribalar muhokama qilinadi.

Shu bilan birga, sammit ishtirokchilari O‘zbekistonda elektron hukumatni rivojlantirish orqali aholiga davlat xizmatlarini yanada qulayroq ko‘rsatish va davlat boshqaruvini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan loyihalar va kelgusi rejalar bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladilar.

GovTech Sammitining yuqori maratabali spiskerlari: Serbiya Respublikasining sobiq prezidenti va hozirda “VEON” kompaniyasi davlat organlari bilan hamkorlik bo‘yicha maslahatchisi Boris Tadich, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) sobiq bosh kotibi Xamadun Ture, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi Telekommunikatsiyalarni standartlashtirish byurosining sobiq direktori Che Sub Li, “Portulans” instituti bosh ijrochi direktori Rafael Eskalona Reynoso, Aloqa sohasidagi hududiy hamdo‘stlik bosh direktori Nurudin Muxitdinov, BMT Osiyo va Tinch Okeani iqtisodiy-ijtimoiy komissiyasi AKT va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo‘limi direktori Tiziana Bonapas, “Huawei Technologies Co. Ltd.” kompaniyasi prezidenti maslahatchisi Pol Maykl Skanlan, “ZTE Corporation” kompaniyasi Osiyo va MDH bo‘yicha bosh vitse-prezidenti Mei Jongua, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) loyiha direktori Park Sun Djin, ACIR Markaziy Osiyo mintaqaviy direktori Migel de la Krus va boshqa spikerlar GovTech texnologiyalarining zamonaviy strategiya va trendlari hamda ilg‘or xalqaro tajribalari bilan sammit ishtirokchilarni tanishtiradilar.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida O‘zbekiston IT outsorsing uchun yangi xab

Mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish va raqamli hukumatni barpo etish bo‘yicha kompleks dasturlar qabul qilinib, samarali amalga tatbiq etilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sohasining mamlakat Yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2016-yilda – **2,1 foiz** bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yil yakuni bo‘yicha Yalpi ichki mahsulotidagi ulushi **2,77 foizga** yetkazildi.

Bunda, AKT sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi esa **3,6 barobarga** oshib, **22,9 trln** so‘mni tashkil etdi. Ta’kidlash joizki, xizmat ko‘rsatish sohasidagi **TOP 10** ta soliq to‘lovchilarning **7 tasi** (*“O‘zbektelekom” AK, “Unitel” MCHJ, “Universal Mobile Systems” MCHJ, “COSCOM” MCHJ, “Information Techology Center” MCHJ QK, “Elektromagnit moslashuv markazi” DUK va “O‘zbekiston pochta” AJ*) soha korxonalarini bo‘ldi.

2016-yilda **aholi jon boshiga AKT sohasidagi xizmatlar hajmi 198 ming** so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning shu davrigacha aholi jon boshiga AKT sohasi xizmatlar hajmi **3,2 barobarga** oshib, **642,9 ming** so‘mni tashkil qildi.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar soni 2016-yil **6 370 tani** tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar **1,9 barobarga** oshib, **12 204 taga** yetdi. Shundan, IT korxonalar soni esa **2,7 barobarga** oshdi va **6 690 tani** tashkil qilmoqda.

IT-Park rezidentlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2017-yilda **179,9 mlrd** so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yil yakuni bo‘yicha, **28,3 barobarga** ortib, **5,1 trln** so‘mga, ular tomonidan eksport qilingan xizmatlar hajmi esa **82 barobarga** ortib, **140 mln dollarga** yetkazildi.

Oxirgi ikki yilda **Global innovatsion indeks** reytingida AKT xizmatlari eksporti ko‘rsatkichi bo‘yicha **42 pog‘onaga** oshdi (*129-o‘rindan 87-o‘ringa ko‘tarildi*).

Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish borasida kompleks ishlar amalga oshirildi. Birgina **1 Mbit/s** uchun Internetga ulanish narxi 2016-yilda **522 ming** so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda **1 Mbit/s** uchun Internetga ulanish narxi **30 ming** so‘mgacha pasaytirildi.

Optik tolali aloqa liniyalari uzunligi **20 ming km.dan 170 ming km.ga** yetib, 8,5 barobarga oshdi. Internet tarmog‘iga ulanishning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati 58 barobarga oshirilib, uning tezligi **55 Gb/s dan 3 200 GB/s.ga** yetkazildi.

Xalqaro internetga ulanish narxi operator va provayderlar uchun qariyb 33 barobarga arzonlashib, **2,7 AQSH dollarini** tashkil etdi.

Buning natijasida **Internet abonentlari** soni 2016-yilda **22 mln.**tani tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yil yakuni holatiga **31,1 mln.**taga yetdi.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun 1,3 mlrd AQSH dollari jalb etilib, shundan **54 foizi (700 mln AQSH dollari)** to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, oxirgi **7 yil** mobaynida mobil internet narxi qariyb **9 barobar** arzonlashib, dunyo reytingida **68-o'rindan 15-o'ringa** ko'tarildi.

2016-yilda **tayanch stansiyalar** soni **17 721 tani** tashkil qilgan, amalga oshirilgan modernizatsiyalash, qurilish ishlari natijasida 2022-yilda bu raqam **54 246 taga** yetkazilgan va 3 barobarga ortgan bo'lib, ko'rsatilayotgan mobil aloqa xizmatlari sifati yanada oshirilgan.

Mobil internet tezligi 2 barobar (7,4 Mbit/s.dan 15,22 Mbit/s. gacha) oshirildi. O'zbekiston BMTning keng polosali mobil internet xizmatlari narxi bo'yicha ikki foizlik maqsadli ko'rsatkichini bajargan **4 ta** yangi davlat qatoriga kiritildi (maqsadli ko'rsatkich - aholi jon boshiga yalpi milliy daromad - **2 foiz** bo'lsa, O'zbekiston **1,07 foiz** ko'rsatkichga ega bo'ldi).

“Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish borasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. 2016-yilda aholi va tadbikorlik subyektlari davlat idorasiga tashrif buyurish orqali davlat xizmatlaridan foydalanilgan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali xizmatlardan foydalanish boshlangandan so'ng 201- yil **1,7 mln** foydalanilgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu portal orqali xizmatlardan **12 mln** marotaba foydalanildi.Yagona portalda **400 dan** ortiq davlat xizmatidan inson omilisiz elektron tarzda foydalanish imkoniyati yaratildi va elektron xizmatlarga bo'lgan talab 10 barobarga oshdi (**937 mingdan 9,5 mln.**taga yetdi).

Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni **4 milliondan** ortiqni tashkil etdi. Shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan portal xizmatlaridan 2023-yil boshidan jami **7,9 mln** marotaba foydalanilgan, 2022 -yil shu davriga nisbatan o'sish 145 foizga oshdi.

Shu bilan birga, Yagona portalning mobil ilovasida **168 ta** elektron davlat xizmatlari aholi va yuridik shaxslarga taqdim etilmoqda.

Aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda qulayliklar yaratish maqsadida, hududlarda **1038 ta** pochta aloqasi obyektlarida **YAIDXP** platformasidan foydalangan holda 62 turdagi davlat xizmatlarini taqdim etish yo'lga qo'yildi.

“Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida Elektron hukumatning Idoralararo integratsion platformasi takomillashtirilib, 2022-yil davomida davlat organlarining **120 dan** ortiq axborot tizimlari o‘rtasida **1 500 mln.**dan ortiq axborot almashinuvi amalga oshirildi, bu esa faqatgina qog‘oz xarajatlari uchun oyiga **8,3 mlrd so‘m**, yiliga esa **100 mlrd so‘m** mablag‘ tejab qolishga erishilmoqda.

Mamlakatimizni hududiy IT markazga aylantirish maqsadida:

2019-yilda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT-Park) tashkil etildi. Shuningdek, respublikada IT-industriyani rivojlantirish, “startup-loyihalarni” har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator amaliy choralar ko‘rildi.

Shu bilan birga, **IT-Park rezidentlari** soni 2019-yil **147 ta** bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yil **1122 taga** yetdi. Hozirgi kunda **1402 taga** yetkazildi. Respublika bo‘ylab IT-Parkning jami **12 ta** hududiy filiali, shuningdek, **AQSH va Germaniyada** IT-park vakolatxonalarini tashkil qilindi.

2022-yilda respublikada ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatilgan IT-xizmatlar hajmi **5,1 trln** so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2017-yilga nisbatan **9 barobar** o‘sdi.

Shu bilan birga, eksport qilingan dasturiy mahsulotlar va IT-xizmatlar hajmi **140 mln AQSH dollarini** tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich, o‘z navbatida, so‘nggi 7 yilda **200 barobarga** o‘sdi.

2021-yildan boshlab IT-Park rezidentlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan faoliyat turlari **4 tadan 18 tagacha** kengaytirilgan.

Bugungi kunga qadar IT-Parkning startup-loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini muvafaqqiyatli yakunlagan 113 ta istiqbolli startup-loyiha jami 82,8 mlrd so‘mdan ortiq miqdorda moliyalashtirildi.

2022 yil 24-27 oktyabr kunlari Samarqandda “ICTWEEK Uzbekistan - 2022” axborot texnologiyalari haftaligi tashkil qilindi.

AKT haftaligida 15 mingdan ortiq ishtirokchi qatnashgan 22 ta xalqaro tadbir o‘tkazildi. **200 million AQSH** dollaridan ortiq qiymatga teng investitsion shartnomalar imzolandi.

Elektron tijorat sohasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. 2018-yilda **41 mlrd** so‘mlik sotuvlar hajmi amalga oshirilgan bo‘lsa, 2022-yilda **2,963 trln**

soʻmdan ortiqni tashkil etdi. Elektron tijorat subyektlarining umumiy soni 2022 yilda **502 taga** yetdi.

Aholining raqamli savodxonligini oshirish hamda raqamli taʼlim ekotizimini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlarga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, Aholini raqamli savodxonligini oshirish va texnologiyalardan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish maqsadida respublikaning barcha tuman (shahar)larida raqamli texnologiyalar oʻquv markazlari faoliyati bosqichma-bosqich yoʻlga qoʻyildi.

2019-yilda bunday markazlar **16 tani** tashkil etgan boʻlsa, bugungi kunda respublika boʻyicha **205 ta raqamli texnologiyalar oʻquv markazlari** faoliyat koʻrsatmoqda.

Ushbu markazlarda kompyuter savodxonligi, dasturlash, robototexnika, veb va mobil ilovalar yaratish va boshqa yoʻnalishlar boʻyicha **168 ming nafardan** ortiq tinglovchi oʻquv kurslarini muvaffaqiyatli yakunladi.

2016-yilda yoshlarni kompyuter dasturlash va IT-sohasiga keng jalb qilish, ularning ushbu sohalarga boʻlgan qiziqishini ragʻbatlantirish tizimi mavjud boʻlmagan.

“Bir million dasturchi” loyihasi joriy qilindi va ushbu loyiha doirasida yoshlarga dasturlash tillarini oʻrgatish ishlari amalga oshirildi. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 2021-2022-yillarda yoshlarni kompyuter dasturlash asoslariga bepul oʻqitish boʻyicha sohaga qiziqadigan yoshlarni aniqlash, oʻqitish va ish bilan taʼminlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi.

Hozirda “Bir million dasturchi” loyiha doirasida **2,5 mln** nafardan ortiq foydalanuvchi roʻyxatdan oʻtgan boʻlib, shundan **1,7 mln** nafardan ortiq ishtirokchi loyiha doirasida taʼlim olib, bitiruvchi sertifikatlarni qoʻlga kiritdi.

2016-yilda yoshlarga xalqaro IT-sertifikatlarini olish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmagan. Shu maqsadda yoshlarni IT sohasida salohiyatini oshirish, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarni oshirishga qiziqtirish maqsadida xalqaro **IT-sertifikatlarini** olish uchun **50 foizgacha** xarajatlarini qoplash tizimi joriy etildi.

Jumladan, Xalqaro IT-sertifikatlarini olish uchun **50 foizgacha** xarajatlarini qoplash boʻyicha yagona interaktiv davlat xizmatlar portali (**“my.gov.uz”**) orqali arizalarni qabul qilish uchun **“Xalqaro IT-sertifikatlarini olish hamda oʻqish xarajatlarining 50 foizgacha boʻlgan qismini qoplab berish”** xizmati yoʻlga qoʻyildi.